

TALABALARNING IJTIMOIIY-KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI VA ULARNING O'QUV GURUHIGA MOSLASHUVI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKLAR

Raxmatullayev Farxod Baxtiyor o'g'li

O'zMU Psixologiya kafedrası

<https://scholar.google.com/citations?user=hE5taCkAAAAJ&hl=ru>

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalarining ijtimoiy-kommunikativ xususiyatlari hamda ularning universitetdagi o'quv guruhi va o'quv faoliyatiga moslashuvi o'rtasidagi bog'liqliklar empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda N. Fetiskinning "Ijtimoiy kommunikativ kompetentlik diagnostikasi" va T. D. Dubovitskaya hamda A. V. Krilovlarning "Universitetda talabalarining moslashuvini o'rganish" metodikalaridan foydalanilib, 542 nafar talaba o'rtasida Spirmen korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida statistik tahlil o'tkazilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, muloqotdagi yopiqlik, konformizm, noaniqlikka toqatsizlik, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi va past frustratsion tolerantlik talabalarining akademik va ijtimoiy-psixologik moslashuvini tormozlovchi destruktiv omillardir.*

Kalit so'zlar: *talabalar moslashuvi, ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik, o'quv guruhi, akademik adaptatsiya, frustratsion tolerantlik, Spirmen korrelyatsiyasi.*

Аннотация. *В данной статье эмпирически анализируется взаимосвязь между социально-коммуникативными характеристиками студентов и их адаптацией к учебной группе и учебной деятельности в университете. В исследовании приняли участие 542 студента. С использованием методик Н. Фетискина («Диагностика социально-коммуникативной компетентности») и Т. Д. Дубовицкой, А. В. Крылова («Изучение адаптации студентов в вузе») был проведен корреляционный анализ Спирмена. Результаты показали, что коммуникативная замкнутость, конформизм, нетерпимость к неопределенности, мотивация избегания неудач и низкая фрустрационная толерантность являются деструктивными факторами, препятствующими академической и социально-психологической адаптации студентов.*

Ключевые слова: *адаптация студентов, социально-коммуникативная компетентность, учебная группа, академическая адаптация, фрустрационная толерантность, корреляция Спирмена.*

Abstract. *This article empirically analyzes the relationships between students' socio-communicative characteristics and their adaptation to the study group and academic activities at the university. Using N. Fetiskin's "Diagnostics of Social and Communicative Competence" and T. D. Dubovitskaya and A. V. Krylov's "Study of Student Adaptation at University" methodologies, a Spearman correlation analysis was conducted among 542 students. The results revealed that communicative*

closedness, conformism, intolerance of ambiguity, motivation to avoid failure, and low frustration tolerance act as destructive psychological factors hindering students' academic and socio-psychological adaptation.

Keywords: *student adaptation, socio-communicative competence, study group, academic adaptation, frustration tolerance, Spearman correlation.*

Kirish. Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan birinchi bosqich talabalari uchun yangi akademik va ijtimoiy muhitga moslashish (adaptatsiya) murakkab va ko'p qirrali psixologik jarayon hisoblanadi. Maktab yoki kollej muhitidan universitet tizimiga o'tish talabadan nafaqat yuqori akademik tayyorgarlikni, balki yangi o'quv guruhi, o'qituvchilar jamoasi va mustaqil ta'lim talablariga moslasha olish uchun yuksak ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni ham talab etadi.

Talabaning akademik muvaffaqiyati va jamoada o'z o'rnini topishi uning muloqotga kirishuvchanligi, kutilmagan va noaniq vaziyatlarda o'zini tuta olishi, emotsional barqarorligi hamda muvaffaqiyatsizliklar qarshisida chidamliligiga bevosita bog'liqdir. Biroq, amaliyotda ko'plab talabalar muloqotdagi to'siqlar, tortinchoqlik, ortiqcha konformizm yoki stressogen akademik yuklamalar sababli guruh dinamikasiga va dars jarayonlariga to'liq integratsiyalasha olmaydilar.

Ushbu tadqiqotning maqsadi talabalarning ijtimoiy-kommunikativ xususiyatlari (kommunikativ moslashuvchanlik, kelishuvga intilish, noaniqlikka toqatsizlik, muvaffaqiyatsizlikdan qochish va frustratsion tolerantlik) hamda ularning o'quv guruhi va o'quv faoliyatiga moslashish darajalari o'rtasidagi empirik bog'liqliklarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Biz tadqiqotimizda N.Fetiskinning "Ijtimoiy kommunikativ kompetentlik diagnostikasi" metodikasi bilan T.D.Dubovitskaya va A.V.Krilovlarning "Universitetda talablarning moslashuvini o'rganish" metodikalarining ko'rsatgichlari orasidagi Spirman korrelyatsion aloqadorligini tekshirib chiqdik va 1-jadvalda chiqqan natijalarga ega bo'ldik.

1-jadval

N.Fetiskinning "Ijtimoiy kommunikativ kompetentlik diagnostikasi" metodikasi bilan T.D.Dubovitskaya va A.V.Krilovlarning "Universitetda talablarning moslashuvini o'rganish" metodikalarining ko'rsatgichlari orasidagi korrelyatsiya ko'effitsiyentlari (Spirman mezon, N=542)

	O'quv guruhiga moslashuvchanlik	O'quv faoliyatiga moslashuvchanlik
Ijtimoiy kommunikativ moslashuvchanlik	-0,359**	-0,329**
Kelishuvga intilish	-0,194**	-0,197**
Noaniqlikka toqat qila	-0,140**	-0,162**

olmaslik		
Muvaffaqiyatsizlikdan qochishga oreantatsiya	-0,326**	-0,358**
Frustratsion tolerantlik	-0,245**	-0,232**

Izoh: *- $p < 0.05$; **- $p < 0.01$

Ijtimoiy kommunikativ moslashuvchanlik shkalasi bilan O'quv guruhiga moslashuvchanlik va o'quv faoliyatiga moslashuvchanlik shkalalari o'rtasida manfiy aloqadorlikni ko'rishimiz mumkin ($r = -0,359$, $p = 0,01$). N.Fetiskinning ushbu metodikasida ballar teskari xarakterga ega bo'lib ya'ni yuqori ballar muloqotchanlikni emas, aksincha, uyatchanlik, tortinchoqlik va muloqotdagi yopiqlikni ifodalaydi. Shundan kelib chiqib talabada muloqotdagi yopiqlik, uyatchanlik va tortinchoqlik qanchalik ortib borsa, uning yangi o'quv guruhiga ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashishi shunchalik pasayib borishi mumkin.

Ijtimoiy kommunikativ moslashuvchanlik shkalasining o'quv faoliyatiga moslashuvchanlik bilan munosabati ($r = -0,329$, $p < 0,01$) talabaning muloqot tizimidagi psixologik to'siqlari va tortinchoqligi uning bevosita dars jarayonlariga va akademik talablarga ko'nikishini ham tizimli ravishda pasaytirishi mumkin. Universitetdagi o'quv faoliyati maktabdagidan farqli o'laroq, talabadan yuqori muloqot texnikasini (seminarlarda chiqish qilish, o'qituvchi bilan ilmiy muloqotga kirishish, guruh loyihalarida qatnashish) talab etadi. Agar talaba o'zini suhbatdosh sifatida noqobil deb hisoblasa, u darslarda ham passivlikni tanlaydi: savol berishga qo'rqadi, fikrini bildiray olmaydi. Natijada uning dars jarayoniga adaptatsiyasi ham qiyinlashishi mumkin.

Aksincha, ijtimoiy kommunikativ moslashuvchanlik shkalasi past bo'lsa ularning akademik muhitga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlovchi yetakchi psixologik resurs bo'lib xizmat qiladi deb hisoblashimiz mumkin.

Kelishuvga intilish shkalasi bilan o'quv guruhiga moslashuvchanlik shkalasi bilan salbiy bog'liqlini ko'rishimiz mumkin ($r = -0,194$, $p = 0,01$). Yuqori ballar ortishi bilan moslashuvning pasayishi shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muhitida o'z pozitsiyasiga ega bo'lmay, faqat "tinchliksevarlik" niqobi ostida hammaga yon beradigan, irodasiz va mas'uliyatni bo'yniga olmaydigan talabalarning ichki moslashuv darajasi past bo'ladi deb aytishimiz mumkin.

Kelishuvga intilish shkalasi bilan o'quv faoliyatiga moslashuvchanlik shkalasi bilan ham salbiy bog'liqlini ko'rishimiz mumkin ($r = -0,197$, $p = 0,01$). Doimiy konformizm talabada subyektiv qulaylik yaratmaydi, aksincha, o'z shaxsiy "Men"ni namoyon qila olmaslik guruh ichidagi mavqeni pasaytiradi va o'quv faoliyatidagi mustaqillikka to'sqinlik qilishini ko'rishimiz mumkin.

Noaniqlikka toqat qila olmaslik bilan o'quv guruhiga moslashuvchanlik shkalasi bilan salbiy bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin ($r = -0,140$, $p = 0,01$). Natijadan kelib chiqib, talabada noaniqlikka toqat qila olmaslik, ya'ni kognitiv rigidlik va odamlarga hamda vaziyatlarga bir tomonlama baho berish xususiyati qanchalik ustun bo'lsa,

uning o'quv guruhidagi ijtimoiy-psixologik muhitga moslashishi shunchalik qiyinlashadi va pasayadi. Muloqotdagi bunday moslashuvchan bo'lmagan pozitsiya guruh ichidagi muqarrar mikronizolarda talabaning murosaga kela olmasligiga, turlicha fikrlarga nisbatan agressiv yoki rad etuvchi munosabat bildirishiga sabab bo'ladi. Guruh a'zolarining xulq-atvorini oldindan bashorat qila olmaslik unda ichki xavotirni uyg'otadi. Natijada, talaba ijtimoiy kutilmalarga moslashish o'rniga guruhdan uzoqlashishni afzal ko'radi, bu esa uning guruhga sotsial-psixologik adaptatsiyasini tormozlashi mumkin.

Kelishuvga intilish shkalasi bilan o'quv faoliyatiga moslashuvchanlik shkalasi bilan ham salbiy bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin ($r=-0,162$, $p=0,01$). Natija shuni ko'rsatadiki, talabaning kutilmagan akademik vaziyatlardan va axborotlar noaniqligidan qo'rqishi, shuningdek, fikrlashdagi ortodoksallik darajasi uning bevosita universitetdagi o'quv faoliyatiga, dars jarayonlariga funksional moslashishini tizimli ravishda pasaytiradi. Noaniqlikka toqatsiz talaba uchun har bir kutilmagan vaziyat (grafikning o'zgarishi, mustaqil ish topshiriqlari, tayyor yechimi bo'lmagan keyslar bilan ishlash) kuchli stress stressor bo'lib xizmat qiladi. Undagi "kutishni bilmaslik" xususiyati o'quv materiallarini tizimli o'zlashtirish o'rniga, shoshma-shosharlik bilan, yuzaki qarorlar qabul qilishga olib keladi. Akademik vaziyatni boshqarishga intellektual plastiklik yetishmagani sababli, talaba o'quv yuklamalari qarshisida o'zini yo'qotib qo'yadi. Bu qonuniyatli ravishda uning o'quv faoliyati ritmiga moslashishni qiyinlashtiradi. Korrelyatsiya koeffitsiyentining guruhga nisbatan faoliyatda yuqoriroq ($r=-0,162$) ekanligi ham ushbu xususiyatning aynan akademik jarayonlar uchun ancha sezilarli to'sqinlik ekanligini ko'rsatadi.

Muvaffaqiyatsizlikdan qochishga oreantatsiya shkalasi va o'quv guruhiga moslashuvchanlik shkalasi o'rtasida salbiy bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin ($r=-0,326$, $p=0,01$). Bu natija shuni ko'rsatadiki, talabada pessimizm, shubha-gumonlik va mustaqillikning yo'qligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning akademik guruh ichidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarga moslashishi shunchalik keskin va tizimli ravishda pasayashini ko'rishimiz mumkin. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi talabani guruh faoliyatida o'zini ko'rsatishdan to'sadi, chunki u doimiy ravishda "rad etilishdan" yoki "kulgiga qolishdan" qo'rqadi. Mustaqillikning yo'qligi sababli u guruh ichida o'z o'rniga ega bo'la olmaydi, doimo kimgadir tobe yoki mutloq passiv kuzatuvchi rolida qoladi. Bu holat uning guruh ichidagi sotsial-psixologik maqomini pasaytirib, jamoaga emotsional integratsiyalashuvini jiddiy tarzda pasaytirishi mumkin.

Muvaffaqiyatsizlikdan qochishga oreantatsiya shkalasi va o'quv faoliyatiga moslashuvchanlik shkalasi o'rtasida salbiy bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin ($r=-0,358$, $p=0,01$). Ushbu natijadan kelib chiqib talabaning akademik qiyinchiliklar oldidagi qo'rquvi, o'z kuchiga ishonmasligi va subyektiv pesimizmi uning universitetdagi o'quv faoliyatiga funksional moslashishini eng yuqori darajada

cheklovchi va pasaytiruvchi omil hisoblanadi deya olamiz. Bunday talabalar har qanday murakkab ilmiy topshiriq, imtihon yoki reyting talablarini o'zlarining rivojlanishi uchun imkoniyat emas, balki omadsizlikka olib keluvchi deb qabul qiladilar. Ularda muvaffaqiyatga erishish motivi emas, balki "yomon baho olmaslik, qiyinchilikka duch kelmaslik" motivi ustunlik qiladi. Bunday pessimistik pozitsiya talabaga kognitiv jihatdan ta'sir qiladi. U o'quv faoliyatida tavakkal qilishdan, qiyin topshiriqlarni tanlashdan qochadi, darslarda tashabbus ko'rsatmaydi. Natijada, pessimizm va mustaqillikning yo'qligi talabaning o'quv motivatsiyasini pasaytirgan holda, uning o'quv faoliyatiga akademik adaptatsiyasini butunlay inqirozga uchratadi.

Frustratsion tolerantlik shkalasi va o'quv guruhiga moslashuvchanlik shkalasi o'rtasida salbiy bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin ($r=-0,245, p=0,01$). Natija shuni ko'rsatadiki, talabada frustratsion vaziyatlarda o'zini tuta olmaslik, jizzakilik va og'zaki muloqotda agressivlikka moyillik qanchalik baland bo'lsa, uning akademik guruh ichidagi sotsial-psixologik munosabatlarga moslashishi shunchalik qiyinlashadi va pasayadi. Hissiy qo'zg'aluvchanligi yuqori bo'lgan talabalar guruhdagi norasmiy hazillarni, tanqidlarni yoki e'tirozlarni o'ta og'riqli qabul qiladilar va bunga ko'pincha agressiv, impulsiv reaksiyalar bilan javob beradilar. Bunday xulq-atvor strategiyasi guruh a'zolarida unga nisbatan masofalanish va rad etish reaksiyasini keltirib chiqaradi. Natijada, talaba jamoaning sotsiodinamik tizimidan uzilib qoladi, bu esa uning o'quv guruhiga ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasini keskin pasaytiradi.

Frustratsion tolerantlik shkalasi va o'quv faoliyatiga moslashuvchanlik shkalasi o'rtasida salbiy bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin ($r=-0,232, p=0,01$). Talabaning o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar va akademik yuklamalar qarshisida emotsional barqarorsizligi uning universitetdagi o'quv faoliyatiga akademik moslashishini tizimli ravishda pasaytirib borishi mumkin. Bunday talabalar stressogen o'quv vaziyatlarida yuzaga keladigan kuchli hayajon va asabiylilikni jismoniy yoki aqliy faoliyatga to'g'ri yo'naltira olmaydilar. Hissiyotlarni jilovlay olmaslik kognitiv funksiyalarni (diqqat, xotira, mantiqiy fikrlashni) bloklab qo'yadi, bu esa keyingi darslarni o'zlashtirish samaradorligini yanada pasaytiradi. Oqibatda, talabada o'quv muvaffaqiyatsizliklaridan qo'rqish tufayli dars faoliyatidan bezish, qochish va umumiy akademik moslasholmaslik holati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, N.Fetiskinning ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik metodikasi shkalalarining empirik ma'lumotlar to'liq va tizimli izohini topdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talaba shaxsidagi ijtimoiy-kommunikativ yopiqiligi, konformistik irodasizlik, noaniqlikka toqat qilmaslik, pesimistik shubhagumonlik va past frustratsion tolerantlik ko'rsatkichlarining yuqoriligi — ularning oliy ta'lim muhitiga integratsiyalashuvini va akademik moslashuvchanligini bevosita tushiruvchi, moslashuviga ta'sir qiluvchi destruktiv psixologik omillar hisoblanadi. Aksincha, talabalarda kommunikativ layoqati yuqoriligi, mustaqil fikrlilik, tolerantlik, optimizm va yuksak hissiy o'z-o'zini boshqarish shakllanganligi ularning universitet

muhitidagi muvaffaqiyatli sotsializatsiyasi va o'quv faoliyati samaradorligini kafolatlovchi yetakchi omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Смирнова Е. А. Формирование коммуникативной компетентности студентов в условиях непрерывного образования: автореферат диссертации ... доктора педагогических наук / Е. А. Смирнова. Москва, 2007. — 38 с.
2. Решетова О. В. Коммуникативная компетентность как фактор успешности учебной деятельности студента: автореферат диссертации ... кандидата педагогических наук / О. В. Решетова. Оренбург, 2006. - 23 с
3. Фарисенкова Л. В. Уровни коммуникативной компетенции в теории и на практике / Л. В. Фарисенкова. Москва: Издательство «Гуманитарий» Академии Гуманитарных Исследований, 2000. - 268 с
4. Кузьмина Е.М.Формирование коммуникативной компетентности студентов вуза»: автореферат диссертации...кандидата педагогических наук / Е. М. Кузьмина. Н. Новгород, 2006. - 23 с.